NAVOIY VA OGAHIY IJODIDA SO’ZNING MA’NO JILOLARI

Karimova Feruzaxon Sayfuddinovna
O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi (PhD)

Anotatsiya: Maqolada so’z va va uning nutqda namoyon bo’lishi hamda bu holatning Navoiy va Ogahiy asarlari misolidagi talqini bayon etilgan. Shu bilan birga lingvopoetik tahlillarga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so’zlar: so’z ma’nosi, Navoiy, Ogahiy, til hodisalari.

Sharq falsafasi ruhoniyatida, jumladan, islom madaniyati ta’sirida ijod qilgan allomalar M.Qoshg’ariy, Y.X.Hojib, A.YUgnakiy, S.Saroyi, A.Navoiy, M.Ogahiy kabilarning qarashlarida so’zning qudrati, kuchi asrlar osha o’z salmog’ini yo’qotmay kelmoqda.

So’z va uning ma’nolari haqida turlicha fikrlar hamda qarashlar bor. [4,7,8,10,6,9,2,3,12]. So’z ko’p qirrali murakkab butunlik bo’lib, dastlabki qarashda ikki tomoni ko’zga tashlanadi. Birinchidan, moddiy ifodalovchi – tovush tomoni, ikkinchi ma’no tomoni. So’zning tovush tomoni tilshunoslikning fonetik-fonologik sathida tekshirilsa, mazmun tomoni o’z xossalariga, asoslariga ko’ra bir qancha sohalarning tekshirish ob’ekti bo’ladi. Tildagi “maktab” so’zi moddiy jihatdan m, a, k, t, a, b kabi tovushlarning o’zaro ketma-ketligidan tashkil topgan butunlik bo’lganligi uchun fonetik-fonologik tahlil etiladi. SHu moddiylik asosidagi “maktab” so’zining ob’ektiv olamdagi biror bir predmet bilan bog’liq bo’lgan ma’nosi, ya’ni o’quvchilar ta’lim-tarbiya oladigan “dargoh”ni ifodalashi leksikologiyada o’rganiladi. “Maktab” so’zining “tosh”, “suv”, “paxta” so’zlar singari ob’ektiv borliqdagi predmetlik tushunchasini ifodalab, ot so’z turkumiga birlashishi grammatikada o’rganiladi. Ko’rinadiki, so’z ko’p qirrali murakkab butunlik hisoblanadi. SHuning uchun so’zning turli xususiyatlarini ochish va izohlashga urinishlar, qiziqishlar ko’p. Biz so’zning ma’no jilolarini hamda shu ma’no nozikliklar asosidagi qudratini ochishga harakat qilamiz.

Shubhasiz, so’z yuqoridagi xususiyatlari bilan bir butunlikni tashkil etadi. Bu butunlik o’zaro munosabatdorlikdagi a’zolarning aloqa majmuasidan tashkil topgan sistemadir. [12:5]. Sistema huddi organizm singari bir-birisiz yashay olmaydigan uzvlarning murakkab qurilmasi hisoblanadi. SHuning uchun so’zning barcha qirralari yaxlit holda tekshirilmasa, chalkashliklarga olib keladi. Bobomiz Alisher Navoiy “So’z durredurkim, aning daryosi ko’ngildur”, - deb so’zning ikki xususiyatiga ishora qiladi. [7:105]. Haqiqatan, so’z duru gavhar singari insonning ko’ngil daryosida yashiringandir. Navoiy so’zni imkoniyat sifatida til xazinasiga qarashli ekanligini

ta’kidlab, uning faoliyatini nutq bilan bog’laydi. Chunki so’z nutqiy jarayondagina faoliyat ko’rsatib, turlicha ma’nolarga ishora qiladi. Shuning uchun so’z haqidagi qarashlarning ko’pchiligida “belgi” ostida izohlangandir. [12:10].

Nutqiy jarayonda so’zlarning ma’no jilolari tushunchalar mosligi asosida yuzaga keladi. Tushunchalarning mosligi hayotiy tajribalar, umumiy bilish xazinamizning hamda muayyan nutqiy sharoit bilan bog’liqdir.

So’zning gapda bitta ma’nosi yuzaga chiqadi. qolgan ma’nolari so’zlovchi va tinglovchining umumiy bilish xazinasida imkoniyat tarzida turadi. Imkoniyat tarzidagi ma’nolar majmuasi so’zning ma’no jilosini tashkil etib, mazmuniy murakkablikni yuzaga keltiradi. Shu sababdan so’z o’zaro aloqadorlikdagi uzvlar majmuasidan tashkil topgan butunlik deb izohlanadi. [12,6,1]. A.Navoiy so’zning bunday xususiyatini “... jomi maoniyi juzv va kuldur” deb ko’rsatadi. [7:105].

So’zning ma’nolar jilosi nutqda namoyon bo’ladi. Chunki so’z imkoniyat sifatida tilda mavjud bo’lsa, faoliyat sifatida nutqda ishtirok etadi. Nutqdagi so’zning ishtiroki cheksiz va chegarasizdir. So’zning faoliyatini A.Navoiy quyidagicha izohlaydi: “Ko’nguldin dog’i so’z durri nutq sharafiga sohibi ixtisos vasilasi bilan guzorish va oroish ko’rguzar va aning qiymati ham martabasi nisbatiga boqa intishor va intihor topar. Gavhar qiymatiga nechukki, marotib asru ko’pdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa bo’lur”.[7:105]. (Mazmuni: Ko’ngildan yana so’z duri nutq martabasiga mutaxassis vositasida naql qilish orqali tartiblanadi va uning qiymati ham martabasining nisbatiga qarab tarqaladi hamda shuhrat topadi. Gavhar qiymatiga nisbatan juda ko’pdir, hattoki, bir diramdan yuz tumangacha desa bo’ladi). Ko’ngil til xazinasi bo’lsa, nutq til xazinasidagi boylikni sarf qiluvchi bozordir. Bozorga yaxshi narsalarni tartib qilish savdogarning mahoratiga bog’liq. SHuning uchun nutqiy barkamollik so’zlardan o’rinli foydalanish asosida yuzaga keladi. Bundan shu narsa anglashiladiki, nutq imkoniyat sifatidagi til asosida biror shaxsning maqsadini (keng ma’noda) ro’yobga chiqarish mahsulidir. [7:105]. Bu holat so’z ma’no jilolarining “nutq martabasida oroyish” topishini tahlil qilinganda, yana ham tushunarliroq bo’ladi.

Darhaqiqat, A.Navoiy “... daryodin gavhar g’ovvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javhariga ko’ra zohir bo’lur”, - deb bejiz aytmagan. [7:105-106]. Chunki biz – nutq irod qiluvchi - g’ovvosmiz, til – daryo, duru gavharlar – so’z, gavharlar bozori – nutqdir. Shunday ekan, biz til daryosidan duru gavharlarimiz javhari – so’zlarimizning ma’no yuki, go’zalligi, nozikligiga qarab belgilanadi. Buning uchun tilda juda katta imkoniyatlar xazinasi mavjudki, ulardan o’rinli foydalanish mahorati bizning nutqiy layoqatimizga bog’liq.

Nutqiy layoqatimizni namoyish qilishning cheki-chegarasi yo’q. Bunga tildagi lisoniy hodisalar yordam beradi. Yuqorida ko’rib o’tgan ko’pma’nolilik hodisasi ham nutqiy go’zallikni ta’minlovchi omillardan biridir. Huddi shunday hodisalardan yana biri ma’nodoshlikdir.

Ma’nodoshlik tilshunoslikda sinonimiya atamasi ostida izohlanadi. [15:3]. Bu hodisa ham go’zal va nafis, ta’sirli hamda mazmundor nutqning yuzaga kelishini ta’minlaydigan lisoniy hodisalardandir. Bunda lisoniy birliklar shaklan – moddiy qobig’ jihatdan farqli bo’lsa-da, ma’no jihatdan umumiylikka ega bo’ladi, lekin ma’no jilosi, nozikligi, bo’yog’i bilan ajralib turadi. Bu hodisani yuzaga chiqishi so’zlar doirasida yana ham yaqqolroq ko’zga tashlanadi. Masalan: keksa, qari, oqsoqol, nuroniy, mo’ysafid kabi so’zlar “yoshi o’tgan” ma’nosi bilan umumiylik kasb etsada, lekin, ma’no nozikligi bilan nutqda farqlanadi. Chunki “qari” so’zida salbiy ma’no nozikligi bo’lsa, “oqsoqol”, “nuroniy”, “mo’ysafid” so’zlarida ijobiy ma’no nozikligi bor. SHuning uchun nutqda birining o’rnida ikkinchisini qo’llash g’alizlikka olib keladi. Solishtiring: qari qizlar, keksa qizlar, nuroniy qizlar . . . Ammo bu so’zlarning o’z o’rni va ishlatilish doirasi bor. Yuqoridagiga o’xshash so’zlarning o’z joyida ishlatilishi nutqiy go’zallikkni ta’minlaydi yoki ta’sirchanlikni yuzaga keltiradi. Shuni unutmaslik kerakki, nutqiy jarayon bir katta ummon, unda so’zlarning xilma-xil ma’nolari jilva qilishi mumkin. Shu sababdan salbiy ma’no bo’yog’iga ega bo’lgan so’z ham ijobiy ma’noda ishlatilishi mumkin. Masalan: Bundan ko’ra go’ng titganing yaxshi emasmi qari tovuq?”, “Qari bilganni pari bilmas”. Birinchi gapda “qari” so’zi salbiy ma’no bo’yog’iga ega bo’lgan holda qatnashayotgan bo’lsa, ikkinchi gapda ijobiy ma’noda ishlatilayapti.

Yana shunday lisoniy hodisalardan biri shakldoshlik hisoblanadi. Shakldoshlik hodisasi til ilmida omonimiya atamasi ostida izohlanadi. [5]. Bunda lisoniy birliklar moddiy qobig’ - shakliy jihatdan o’xshash bo’ladi, lekin ma’no jihatdan boshqa-boshqa xususiyat kasb etadi. Yoki moddiy qobig’i bir xil bo’lishi shakldoshlikni keltirib chiqaradi. Masalan: ot-ism, ot-hayvon, ot-fe’l. SHakldoshlik ham so’zning ma’no jilolarini namoyish qiluvchi lisoniy hodisalardandir. Chunki shakldoshlik moddiy qobig’ jihatdan o’xshash bo’lganligi uchun nutqda ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. Natijada nutqiy ravonlik paydo bo’ladi. A.Navoiy shakldosh so’zlardan ustalik bilan foydalanib, quyidagicha misralar yaratganki, unda ham shakliy, ham mazmuniy go’zallik aks etgan:

1. Yo rab, ul shahdu shakar yo labdurur,
Yo magar shahdu shakar yolabdurur.
Jonima payvasta novak otqali
G’amza o’qin qoshiga yolabdurur.
2. Javr o’qin jonimga soqiy yozmadi,
Vasl jomidin xumorim yozmadi.
Kimki qudrat sabzaxotlar ishqidin
O’zga ish olimga go’yo yozmadi.

Shakldoshlik tashqi ko’rinish jihatdan bo’lganligi uchun tovushlar sil-silasida aks etadi. Shuning uchun ko’pgina ilmiy talqinlarda “tovushdoshlik” atamasi ostida ham

izohlanadi. [13:13]. Ammo tovushdoshlik shakldoshlikni ta’minlovchi asos bo’lib, ko’pincha bir tovush bilan farqlanuvchi til birliklari uchun ishlatiladi. Masalan: dub-bup, tup-tup ... Tilshunoslikda omofon atamasi ostida izohlanadi. Bu hodisa ham nutqiy ravonlikni va shakliy hamda mazmuniy go’zallikni yuzaga keltiradi. [13:14-22]. Nutqiy go’zallikni ta’minlovchi omillardan yana biri zidlanishdir. [13:14-22]. Zidlanish hodisasi tilshunoslikda antonimiya atamasi ostida talqin etiladi. [5,14,13]. Zidlanishda til birliklari ma’no jihatdan qarama-qarshi bo’ladi. Ma’nodagi qarama-qarshilik o’zaro bog’liq holda yuzaga chiqadi. Shuning uchun bundan til birliklarining birini eshitishimiz bilan ikkinchisi esga keladi. Bular huddi bir narsaning ikki yuziga o’xshaydi. Biri old yuzi, ikkinchisi – orqa tomoni. Shu sababdan ular o’rtasidagi zidlanish oddiy tartibdagi qarama-qarshilikdan emas, balki o’zaro aloqadorlikdagi munosabatdan kelib chiqqan deyishimizga asos bor. Masalan: achchiqlanishli birikmani hosil qilmaydi. Achchiq so’ziga chuchuk so’zi qarama-qarshi qo’yiladi. “Shirin” so’ziga “bemaza” so’zi qarama-qarshi turadi. Yoki xalqimizda “turmushi achchiq bo’ldi”ni qarama-qarshi qo’yish nutqiy g’alizlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun zidlanish hodisasidagi aloqadorlik ma’no qarama-qarshiligi jihatidan bo’lsa ham, ammo nutqiy jarayondagi o’zaro ma’nolar mosligini hisobga olmay hukm chiqarib bo’lmaydi.

So’z qudrati va kuchini o’z asarlarida namoyon qilishda A.Navoiy qalamidan keyin, shubhasiz, M.Ogahiy qalamidan to’kilgan satrlar qiymati o’ziga xos jozibadorlikka ega. Til ilmidagi shakllar orqali go’zal mazmun va manzara yarata olgan hassos shoir Ogahiy ijodiga nazar tashlasak, ajib holatlarga guvoh bo’lamiz. Shoir ijodiyotida barcha jabhalar birdek qalamga olingan deyish mumkin, Xoh lirik yo ijtimoiy, xoh tarixiy yo siyosiy mavzular bo’lsin, ular ogoh shoirni befarq qoldirmagan. SHoirning lirikasida badiiyat yaratish ba’zan murakkab, ba’zan o’ta jo’n usul va vositalar orqali amalga oshirilgan. Musofiyattarafayndek jiddiy shakl va mazmun yaxlitligi bilan bir qatorda, o’ta jo’n, lekin ta’sirchan bo’lgan qarama-qarshi so’zlar qo’llash-zidlanish vositasi orqali ham ajoyib holatlar yaratganini guvohi bo’lamiz.

Uning she’riyatida zidlanish hodisasi orqali o’ziga xos badiiylik va estetik zavq uyg’ota oladigan satrlari anchagina.

1. Yuz ochib kelgil, ey maxvash, quyosh yanglig’ xirom aylab,
Boshimga soldi savdo furqating subhimni shom aylab.
2. Vahki, aylab lutfu ihson yor mandin o’zgaga,
Aylamas zulmu sitam izhor mandin o’zgaga.

Ulug’ shoir Ogahiy birinchi baytda “subh” bilan “shom”, ikkinchi baytda “lutfu ihson” bilan zulmu sitam” so’zlarini o’zaro nutqiy aloqadorlikdagi zindlanishidan go’zal misralar yaratgan. Baytlardagi mazmuniy go’zallik va murakkablik shu so’zlarning zidlanishidan yuzaga kelgan.

Bundan tashqari zidlanish hodisasi so’zlar doirasida uslubiy moslikni ham talab etadi. Masalan “subh” so’ziga “kechqurun” yoki “kechki payt” so’zlari qarama-qarshi tursa ham, lekin nutqda ularni zidlantirish uchun uslubiy bo’yoqdorlik jihatdan mos keladigan “shom” so’zi qo’llanmasa, nutqiy g’alizlik kelib chiqadi. Shuning uchun uslubiy moslik va nutqiy ravonlik asosidagi zidlanish go’zallikni ta’minlaydi. Ogahiyning quyidagi baytlarida zidlanish munosabatiagi go’zallik va teranlikni yana ham yaqqolroq anglashimiz mumkin:

Ey shah, karam aylar chog’i teng tut yomonu yaxshini,
Kim mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina.
Chu sansan husn mulki shahikim, xoki janobingga
Kuyar har lahza boshin xo’blar o’zngi g’ulom aylab.

Yuqoridagi baytlarda yomon-yaxshi, vayron-obod, shoh-g’ulom so’zlari o’zaro zid ma’no ifodalasa ham baytning mazmuniy teranligini ta’minlagan. Shuning uchun zid ma’noli so’zlarning o’z o’rnida va doirasida ishlatilishi nutqiy go’zallikni yuzaga keltiruvchi omillardan biri hisoblanadi desak xato qilmaymiz.

So’zning ma’no jilolari nutqda namoyon bo’lib, uni yuzaga keltiruvchi lisoniy asoslar bor. Bunday asoslar tilshunoslikda ma’nodoshlik, shakldoshlik, ziddoshlik nomlari ostida til hodisalari sifatida tadqiq etiladi. Ular nasriy va nazmiy nutqlarning go’zalligini ta’minlaydi. Biz yuqoridagi lisoniy hodisalarning so’zlar doirasida namoyon bo’lishini ko’rib o’tdik. Bu hodisalar iboralar doirasida, ko’makchilar doirasida, sintaktik butunliklar doirasida ham yuzaga chiqishi mumkin. Lekin ular alohida tadqiqotni talab qilganligi uchun, biz faqat so’zlar munosabatini ko’rsatdik xolos. Umuman, nutqiy go’zallik va teranlikni yuzaga keltiruvchi asoslar xilma-xil bo’lib, ular turlicha namoyon bo’lishi mumkin. Ularning turlari va xususiyatlarini har bir inson bilishi hamda undan foydalanishi mumkin. Bu esa jamiyatimizning ma’naviy yuklasilishini ta’minlaydigan poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Benvenist. E. Obщaya lingvistika. Moskva, 1974.
2 .Vinogradov.V. Russkiy yazыk. Moskva. 1986.
3. Kasevich.V.B .Semantika. Sintaksis. Morfologiya. Moskva, 1988.
4. Koshg’ariy.M. Devonu lug’otit turk. 3 jildli. Toshkent, 1960-1963.
5.Mirzaev M va boshqalar. O’zbek tili. Toshkent, 1973.
6. Mirtojiev. M , Mahmudov.N. Til va madaniyat. Toshkent, 1992 . 81-bet.
7. Navoiy.A. Asarlar. Muhokamatul-lug’atayn.14-tom, Toshkent, 1967. 105-bet.
8. Navoiy.A. Hayrat-ul abror. Toshkent, 1983. 7-bet .
9. Ne’matov H, O.Bozorov. Til va nutq. Toshkent, 1993 , 6-27-bet.
10. Nurmonov A va boshqalar. O’zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent, 1972. 126- bet.

11. Nurmonov.A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. Toshkent, 1986.
12. Nurmonov. A.Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. Andijon, 1992. 5-bet.
13. Rustamov. A.So’z xususida so’z. Toshkent, 1987. 13-bet.
14. Shoabdurahmonov SH va boshq. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent, 1980.
15. Hojiev.A. O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati. T, 1974. 3-bet.